sirtmoqsimon egiri chiziq *gisterezis sitrmog'i* deyiladi (3-rasm). Rasmda ko'rsatilgan egiri chiziqdan magnitlovchi egiri chiziq yo'qotilganda ferromagnit qoldiq magnetizmni saqlab qoladi, shu bilan birga magnetik ichida biror qoldiq induksiya mavjud bo'ladi. Magnitlovchi maydon amplitudasi orttirilganda u chegaraviy qiymat  $V_T$  ga erishadi. Qoldiq magnitlanishni yo'qotish uchun ferromagnetik ichida dastlabki magnitlovchi maydonga qarshi yo'nalgan  $ON_K$  kesma bilan tasvirlangan maydon hosil qilish lozim. Bu maydonni ferromagnetikning *tutib qoluvchi* yoki *koersitiv kuchi* deyiladi. Gisterezis xalqasining kuzatilishi ferromagnitlarda alohida-alohida joylashgan mikroskopik, ya'ni etarlicha kichik hajmdagi magnitlangan qismlar – **domenlarning** mavjudligidir (2 rasmga qarang).

## **II. O'lchash uslubining nazariyasi va qurilmasining tavsifi**

### **CASSY Lab 2 ning ko'rsatmalari**

Misollarni va asboblarni o'rnatish uchun CASSY Lab 2 yordamidan foydalaning.

### **Tajribalar bayoni**

Transformatorning o'zagidagi (ferromagnitdagi) magnit maydon g'altakdan oqayotgan tok kuchiga va birlamchi g'altakdagi effektiv o'ramlar zichligiga to'g'ri proportsional bo'ladi

$$H = \frac{N_1}{L} \cdot I \quad (1)$$

Ammo hosil bo'ladigan magnit oqimining zichligi yoki magnit induksiyasi  $H$  ga to'g'ri chiziqli proportsional bo'lmaydi

$$B = \mu_r \cdot \mu_0 H \quad (2)$$

Bu yerda  $\mu = 4\pi \cdot 10^{-7} \frac{V \cdot s}{A \cdot m}$

Magnit maydon kuchlanganligi  $H$  ning ortishi bilan magnit induksiyasi  $B_s$  to'yinish qiymatiga erishadi. Nisbiy magnit singdiruvchanlik  $\mu_r$  ning qiymati magnit maydon kuchlanganligi  $H$  dan va ferromagnitning dastlabki magnit holatidan bog'liq bo'ladi.

Magnitsizlantirilgan ferromagnetikda magnit maydon kuchlanganligi  $H$  q 0 AG'm bo'lganda magnit induksiyasi  $B$  q 0 T bo'ladi. Ammo, oddiy hollarda ferromagnit  $H$  q 0 AG'm bo'lganda ham nolga teng bo'lmagan qoldiq magnit oqimi zichligi  $B$  ga ega bo'ladi.

Shunday qilib, magnit induksiyasi  $B$  ning maydon kuchlanganligi  $H$  ning ortib borgandagi va kamayib borgandagi qiymatlarining funksiyasi sifatida gisterezis halqasi shaklida ifodalash qulay bo'ladi. Gisterezis halqasi butunlay magnitsizlantirilgan materialning  $H$  q 0 AG'm va  $B$  q 0 T bo'lganda koordinatalar


sistemasining 0 nuqtasidan boshlanadigan magnitlanish egri chizig'idan farq qiladi.  $B_u$  tajriba misolida  $H$  va  $B$  lar to'g'ridan to'g'ri (bevosita) o'lchanmagan, balki ularga proportsional bo'lgan kattaliklar, -birlamchi chulg'amdagi tok kuchi

$I_q(LG'N_1)*H$  va ikkilamchi chulg'amdagi magnit oqimi  $F_qN_2*A*B$  dan foydalanilgan ( $N_2$ –ikkilamchi chulg'amdagi o'ramlar soni,  $A$  –ferromagnit o'zagining ko'ndalang kesimi). Magnit oqimi  $F$  ikkilamchi chulg'amda induksiyanadigan  $U$  kuchlanishning integrali sifatida hisoblab topilgan.

### **Eksperimental qurilma:**

Power –CASSY transformatorning birlamchi chulg'amini tok bilan ta'minlaydi.  $F$  magnit oqimi ikkilamchi g'ltakda induksiyanadigan va Sensor-CASSY kirishi B da o'lchanadigan  $U$  kuchlanish qiymatidan hisoblab topiladi.

Bunga alternative ravishda siz tajribani Power –CASSY dan foydalanmasdan, funksional generator S12 dan foydalanib bajarishingiz mumkin. Bu apparat chastotasi 0.1 Gerts va amplitudasi 2 V bo'lgan arrasimon signalga ulangan bo'lishi lozim. Magnitlanish egri chizig'ini o'lchash  $I_q 0 A$  da triggerlangan. Bu nuqtaga aniq erishish uchun tok rele yordamida transformator orqali shuntlanganva egri chiziqni o'lchashdan oldin qarshiligi 1 Om bo'lgan rezistordan oqadi.



### **III. Ishni bajarish tartibi** **Qurilmani ishga tushirish**

1. Agar zarurat bo'lsa offset ni korrektirlang: Setting UB ni oching, "Correct" ni tanlang, dastlabki raqam qiymati "0 V" ni o'rnating va "Correct Offset" nibosing.

2. Transformatorning o'zagini magnitsizlantiring.

3. Tajriba o'tkazishni boshlang

4. Gisterezis halqasining bir davridan keyin yoki Fq 0 Vs da o'lchashni to'xtating (bu holda o'zak qayta magnitsizlantirilmasligi mumkin)

5. Agar gisterezis halqasi ikkinchi va to'rtinchi kvadrantlarda yotgan bo'lsa, ikki g'altakdan birining ulash nuqtalarini qarama -qarshisiga almashtiring.

6. Agar tajriba o'tkazish davomida grafik displeyda tashqarida bo'lsa, SettingUB dan o'lchash diapozonini kengaytiring.

### **Hisoblashlar**

Gisterezis halqasi  $B(H)$  ning yuzasi  $\int B \cdot dH = \frac{E}{V}$  magnitsizlantirilgan materialning  $V$  hajmida qayta magnitlashdagi energiya isrofiga mos kelganligi uchun  $F(I)$  diagrammadagi berk soha

$$\int \Phi dI = \int N_2 \cdot A \cdot B \cdot \frac{L}{N_1} dH = \frac{N_2}{N_1} V \int B dH = \frac{N_2}{N_1} E$$

Ifoda bizga  $N_1$  q  $N_2$  uchun qayta magnitlanishdagi energiya isrofi  $E$  ni aniq beradi. Diagrammada siz gisterezis halqasining "Peak Integration" bo'limidan foydalanib bu energiya isrofini hisoblashingiz mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. Magnit induksiya vektori, maydon kuchlanganligi vektori va magnitlanish vektorlari qanday bog'langan? Nisbiy magnit singdiruvchanlik bilan magnit qabul qiluvchanlik o'rtasida qanday bog'lanish bor?

2. Magnit maydon kuchlanganligi, magnit induksiya va magnitlanish vektorlarining yopiq kontur bo'yicha Sirkulyatsiyalari nimaga teng?

3. Ferromagnitlarning magnit xossasining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat? Magnitlanish egri chizig'i va gisterizis halqasi nimadan iborat? Magnit bo'sh va magnit qattiq materiallarning magnit xossalari bir biridan qanday farq qiladi?

4. Antiferromagnetizm nima? Uning magnitlanish jarayoni qanday tushuntiriladi?

5. Ferromagnetizm va uning magnit xossasining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat? Magnitlanish jarayonini tushuntirib bering.

### **Laboratoriya ishi №4**

### **TO'G'RI O'TKAZGICH VA AYLANMA HALQANING MAGNIT MAYDONINI O'LCHASH**

**Ishning maqsadi:**

- To'g'ri o'tkazgich va aylanma halqaning magnit maydonini tok kuchining funksiyasi sifatida o'lchash.
- To'g'ri o'tkazgich magnit maydonini o'tkazgich o'qidan hisoblanadigan masofaning funksiyasi sifatida o'lchash.
- Aylanma halqa shaklidagi o'tkazgich magnit maydonini halqa radiusining funksiyasi sifatida va halqa o'qi ustida halqa markazidan masofaning funksiyasi sifatida o'lchash.

**Kerakli asbob-uskunalar:** 1 4 dona o'tkazgichlar to'plami (516235), teslameter (51662), 1 axial B-probe (51661), 1 tangential B-probe (51660), 1 ko'p o'zakli kabel, 6-qutb (50116), 1 yuqori energiyali manba (52155), 1 kichik optik stol (46043), 1 shtepsel elementlari tutgichi elements (46021), 2 Leybold ko'ptutgich (30101), 1 shtativ, V-shaklda, 28 cm (30001), 1 ikki-yo'lli adapterlar to'plami (501644), Ulash kabellari, Ø2.5 mm<sup>2</sup>

**I. Nazariy ma'lumotlar**

**Doimiy tokning magnit maydoni.** 1820 yilda Daniya fizigi X. Ersted tokli o'tkazgichning atrofida magnit maydoni bor ekanligini tajribada aniqladi. Ersted tajribasining mohiyati quyidagidan iborat. U to'g'ri chiziqli o'tkazgich olib, undan ma'lum masofada magnit strelkasini joylashtirgan vaqtda uning burilishini kuzatdi. Bu burilish to'g'ri chiziqli o'tkazgichdan o'tayotgan tokning kattaligiga va yo'nalishiga bog'liq ekanligini aniqladi.

Tokli o'tkazgich bilan magnit strelkasining o'zaro ta'siri masofaga teskari proporsional ekanligini ham aniqladi. Ersted tajriba natijalarini umumlashtirib, shunday xulosaga keldiki, tok bilan magnitning o'zaro ta'siri tok kuchiga, o'tkazgichning uzunligiga to'g'ri proporsional bo'lib, masofaning kvadratiga teskari proporsional ekanligini aniqladi. Tajribalar ko'rsatdiki, bu o'zaro ta'sir tokning yo'nalishiga bog'liq ekanligi, ya'ni bu o'zaro ta'sirning vektor xarakterga ega ekanligini isbotladi. Shuningdek, u bu o'zaro ta'sirning kattaligi tok va maydonning ta'siri o'rganilayotgan masofaga perpendikulyar ekanligini ham aniqladi. Magnit kuch chiziqlarining konsentrik halqalardan iborat ekanligini ko'rish mumkin.

**Keyinchalik.** Amper doimiy magnitning tokli o'tkazgichga ta'sirini o'rganib, ular o'rtasida ham o'zaro ta'sir kuchi bor ekanligini aniqladi. Bu haqda biz keyingi ma'ruzalarda batafsil to'xtab o'tamiz. Ma'lumki, Amper yana bir tajribasida parallel va antiparallel joylashgan tokli o'tkazgichlarning bir birini tortishini va itarishini kuzatgan edi. Kulon qonunidan ma'lumki, bir xil qutbli magnitlar, bir birini itarishini va har xil qutbli magnitlar bir birini tortishishini bilamiz. Bu o'zaro ta'sirlar magnit maydoni orqali amalga oshiriladi. Tokli o'tkazgich o'z atrofida magnit maydoni hosil qiladi u shu maydonda joylashgan har qanday o'tkazgichga ta'sir ko'rsatadi. Agar o'tkazgichlardagi tok doimiy bo'lsa va o'tkazgichlar qo'zg'almas bo'lsa u vaqtda ular hosil qilgan magnit maydoni fazoning har bir nuqtasida vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi. Bunday magnit maydoniga doimiy magnit maydon deyiladi. Doimiy magnit maydonining nazariyasi elektrostatik

maydon nazariyasiga o'xshash bo'ladi. Mana shu holatga e'tibor berishni tavsiya etamiz, chunki bu hol materialni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

**Magnit maydon induksiya vektori. Tok elementi.** Maydon nazariyasida elementar manba eng muhim rol o'ynaydi. Tortishish nazariyasida bu moddiy nuqta bo'lsa, elektrostatikada nuqtaviy zaryad. Xuddi shunday rolni magnit maydon nazariyasida tok elementi o'ynaydi. Tok elementi bu vektor bo'lib, uning absolyut kattaligi tok kuchi  $I$  ning o'tkazgichning  $dl$  qismiga ko'paytmasi bilan aniqlanadi,  $I dl$  yo'nalishi esa tokning yo'nalishi bilan mos tushadi. Elektrostatikada esa sinov zaryad  $q_0$  olinar edi.

Magnit maydonining asosiy harakte-ristikasi hisoblangan magnit maydon induksiya vektori ham elektrostatik maydonning asosiy xarakteristikasi hisoblangan kuchlanganlik vektori kabi aniqlanadi. Doimiy tok o'tuvchi ixtiyoriy qo'zg'almas o'tkazgichlar sistemasining hosil qilgan magnit maydonini qaraymiz va "sinash tok elementi"  $I_0 dl$  ga (maydonning tekshirayotgan nuqtasiga joylashgan) ta'sir qiluvchi kuch  $\mathbf{F}$  bilan qiziqamiz. Sinash tok elementi uchun qisqa va yupqa ko'zg'almas o'tkazgich olinadi, unga ta'sir etuvchi kulni o'lchash uchun silliq tutashtiruvchi sim olish kerak. Bundan tashqari undan juda kichik tok o'tkazish kerak.


Tajribalar shunday xulosaga olib keladiki,  $d\mathbf{F}$  kuch tok elementining absolyut qiymatiga proporsional,  $d\mathbf{F} \sim I_0 dl_0$  (elektrostatikada  $F \sim q_0$  edi), va uning yo'nalishiga bog'liqdir (tok elementi-vektordir). Maydonning har bir nuqtasida qandaydir fizik yo'nalish mavjud bo'ladi, u shu bilan e'tiborga loyiqki, birinchidan, kuch kattaligi  $d\mathbf{F}$  shu yo'nalish bilan va tok elementi yo'nalishi o'rtasidagi burchakning sinusiga proporsionaldir, ya'ni, tok elementiga ta'sir etuvchi elementar kuch quyidagicha aniqlanadi:

$$d\mathbf{F} \sim q B I_0 dl_0 \sin \alpha \quad (1)$$

bu yerda  $\mathbf{B}$ - proporsionallik koeffisienti bo'lib, maydonning sinash tok elementi joylashgan nuqtasidagi xossasiga bog'liq bo'lib, tok elementining kattaligi va yo'nalishiga bog'liq bo'lmaydi.

Masalan,  $\alpha \rightarrow 0$ ; bo'lganda  $d\mathbf{F}$  ham 0 ga teng bo'ladi,  $\alpha \rightarrow \pi/2$  bo'lganda u maksimaldir.  $d\mathbf{F}$  ning yo'nalishi tok elementining yo'nalishiga bog'liqdir va parma qoidasi bilan aniqladi (1-rasm). Bu holatlar shuni bildiradiki, agar  $\vec{B}$  vektor kiritsak, uning yo'nalishi fizik yo'nalish bilan mos keladi deb hisoblashsak, u vaqtda kuch  $d\mathbf{F}$  ni  $I_0 dl_0$  va  $\vec{B}$  vektorning vektor ko'paytmasi shaklida yozish mumkin.





1-rasm

$$d\vec{F} \propto [I_0 d\vec{l}_0 \vec{B}] \quad (2)$$

yoki uning moduli

$$dF = I_0 dl_0 B \sin \alpha \quad (3)$$

Bu formula elektrostatikadagi  $\vec{F} \propto q\vec{E}$  ga o'xshashdir.


Vektor  $\vec{B}$  sinash tok elementi kattaligiga va yo'nalishiga bog'liq bo'lmaydi, demak maydonning xarakteristikasi bo'la oladi. Unga **magnit maydon induksiya vektori** deb aytiladi.

Tok elementi  $\vec{B}$  vektoriga perpendikulyar yo'nalgan bo'lsa, ( $\alpha \approx \pi/2$ ,  $\sin \alpha \approx 1$ )  $d\vec{F}$  kuch maksimal bo'ladi va u  $dF \propto I_0 dl_0 B$  ga teng bo'ladi. Bundan magnit induksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$B = \frac{dF}{I_0 dl_0} \quad (4)$$

Bu ifoda ham elektrostatikadagi  $E = F/q$  formulaga o'xshashdir. Bundan ko'rinadiki, magnit induksiya vektorining kattaligi son jihatdan birlik tok elementiga ( $I_0 \approx 1A$ ,  $dl_0 \approx 1m$ ) ta'sir qiluvchi maksimal kuchga teng bo'ladi. Magnit induksiyasining o'lchov birligi qilib, XB sistemasida "tesla" (Tl) qabul qilingan:  $1Tl \approx 1N/A \cdot m$

Har qanday vektor maydon singari, magnit maydonini ham magnit induksiya vektori chiziqlari oilasi orqali tasvirlash mumkin (elektrostatikadagi kabi). Magnit induksiya chiziqlarining manzarasi o'zining xarakteri jihatidan elektrostatik maydon kuch chiziqlaridan tubdan farq qiladi. Ma'lumki, elektrostatik maydon kuch chiziqlari zaryadlardan boshlanib, zaryadlarda tugatilib, magnit induksiya kuch chiziqlarining boshlanish va oxiri yo'q - ular yopiq chiziqdan iborat bo'ladi. Magnit induksiya chiziqlarining bu xossasi 2 rasmda yaqqol ko'rinadi, a) to'g'ri chiziqli cheksiz uzun o'tkazgich, b) aylanma tok v) tokli g'altakning magnit maydon manzarasi tasvirlangan.



2 - rasm

Chiziqlari yopiq bo'lgan vektor maydoniga uyurmali maydon deyiladi. Demak, doimiy magnit maydoni- uyurmali bo'lib, uyurmali emas elektrostatik maydonidan farq qiladi. Ma'lumki, elektrostatik maydonning kuch chiziqlari yopiq emas edi.

**Superpozitsiya prinsipi.** Savol tug'iladi: qanday qilib toklar hosil qilgan magnit maydonning taqsimlanishini yoki maydonning induksiyasini hisoblash mumkin. Eslatib o'tamizki, bunday muammoga elektrostatikada ham duch kelgan edik, ya'ni zaryadlarning taqsimlanishi berilgan bo'lsa, superpozitsiya prinsipi asosida elektrostatik maydon kuchlanganligini hisoblagan edik.

Tajribalar tasdiqlaydiki, shunga o'xshash prinsip magnit maydonida ham mavjud bo'ladi: tokli o'tkazgichlar sistemasi tomonidan hosil qilgan maydonning muayan nuqtadagi magnit induksiyasi shu nuqtada alohida toklar qismlari hosil qilgan magnit induksiyalarining yig'indisiga teng bo'ladi. Hususan, agar o'tkazgichlarni fikran cheksiz kichik elementlarga bo'lsak, quyidagiga ega bo'lamiz

$$\vec{B} = \int d\vec{B} \quad (5)$$

Bu yerda  $d\vec{B}$  - alohida tok elementi tomonidan hosil qilingan magnit maydon induksiyasi bo'lib, integrallash sistemadagi barcha tokli o'tkazgichlar bo'yicha bajariladi.

**Bio-Saavar-Laplas qonuni.** Dastlab, alohida tok elementi hosil qilgan magnit maydon induksiyasini topadigan formulani keltirib chiqarish kerak. Bu yerda izolyatsiyalangan tok elementlari orqali tajribadan keyin, cheksiz uzunlikdagi turli shakldagi o'tkazgichlarning hosil qilgan magnit maydonini tahlil qilish orqali bilvosita magnit induksiyasini aniqlanadigan formulani topishga harakat qilamiz. Bu masalani Bio-Saavar-Laplas qonuni ham deb ataladi va XB sistemasida quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$d\vec{B} = \frac{\mu\mu_0}{4\pi} \left[ \frac{Idl\vec{r}}{r^3} \right] \quad (6)$$

Bu formulada  $\mathbf{r}$  -radius-vektor bo'lib, tok elementi  $I dl$  dan vektor  $\vec{B}$  aniqlanayotgan maydon nuqtasiga o'tkazilgan yo'nalishdagi masofani bildiradi (3-


rasm).  $\mu_0 4\pi \cdot 10^{-7} \text{ GnG'm}$  -magnit doimiylik,  $\mu$ -nisbiy magnit singdirvchanlik.

$d\vec{B}$  vektorining moduli uchun, (6) ga asosan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$dB = \frac{\mu_0}{4\pi} \frac{Idl \sin \alpha}{r^2} \quad (7)$$

Bu yerda  $\alpha$ - tok elementi  $I dl$  bilan, radius-vektor  $\vec{r}$  orasidagi burchak,  $\vec{B}$  vektorning yo‘nalishi vektor ko‘paytma  $[\vec{Idl} \cdot \vec{r}]$  yo‘nalishi bilan mos keladi va Parva qoidasi bilan aniqlanadi.

Ma‘lumki,  $d\vec{B}$  kattalik faqat masofa  $r$  ga bog‘liq bo‘lmasdan,  $\alpha$




3 – rasm

burchakka ham bog‘liqdir, agar  $\alpha \rightarrow 0$  bo‘lsa, magnit induksiyasi nolga teng va  $\alpha$  ning  $\pi/2$  ga yaqinlashishi bilan U oshadi.

Superpozitsiya prinsipini qo‘llab Bio-Saavar-Laplas qonuni orqali har qanday tokli o‘tkazgichning magnit maydonini hisoblash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ikkita misol keltiramiz.

**To‘g‘ri tokli o‘tkazgichning magnit maydoni.** Qandaydir yuqqa tokli o‘tkazgich to‘g‘ri qismga ega bo‘lsin. Ana shu to‘g‘ri chiziqli qism hosil qilgan magnit maydon induksiyasini hisoblaymiz. Maydonning qaralayotgan nuqtasidan o‘tkazgichga bo‘lgan masofani  $dx$  bilan belgilaymiz, o‘tkazgich bo‘ylab koordinatani 0 nuqtadan boshlab X o‘qini o‘tkazamiz (4-rasm).



4-rasm

Koordinatasi  $x$  va uzunligi  $dl = dx$  bo‘lgan o‘tkazgich tok elementining A nuqtada hosil qilgan magnit induksiya vektori Bio-Saavar-Laplas qonuniga ko‘ra:

$$dB = \frac{\mu\mu_0}{4\pi} \frac{Idx \sin \alpha}{r^2} \quad (8)$$

ga teng bo‘ladi.

(7) va Parva qoidasidan foydalanilsa, o'tkazgichning barcha kichik elementlari hosil qilgan  $d\vec{B}$  vektorlari bir hil yo'nalishga, chizma orqasi tomon yo'nalgan bo'ladi va (Q) bilan belgilanadi. Shuning uchun yig'indi vektor  $\vec{B}$  ham shu yo'nalishga tomon bo'ladi, uning absolyut miqdori barcha  $d\vec{B}$  larning absolyut miqdorlarining yig'indisiga teng bo'ladi, ya'ni quyidagi aniq integral bilan ifodalanadi:

$$B = \int dB = \int \left( \frac{\mu_0}{4\pi} \frac{I \sin \alpha dx}{r^2} \right) \quad (9)$$

Bu integralni hisoblash uchun o'zgaruvchi  $\alpha$  ni  $r$  va  $dx$  orqali ifodalash kerak.

4-rasmdan ko'rinadiki,  $x \sin(\pi - \alpha) = b \sin \alpha$ , buni differensiallasak,  $dx \sin \alpha - x \cos \alpha d\alpha = b \cos \alpha d\alpha$  ni hosil qilamiz.  $r$  uchun esa  $r \sin(\pi - \alpha) = b \sin \alpha$ . Bularni (9) ga qo'ysak, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$B = \int dB = \frac{\mu_0 I}{4\pi b} \int \sin \alpha d\alpha = \frac{\mu_0 I}{4\pi b} (\cos \alpha_1 - \cos \alpha_2) \quad (10)$$


bu yerda  $\alpha_1$  va  $\alpha_2$  lar  $\alpha$  ning chegaraviy qiymatlari bo'lib, To'g'ri chiziqli o'tkazgichning oxirlariga to'g'ri keladi. Ideal holda cheksiz uzunlikdagi To'g'ri chiziqli o'tkazgich uchun  $\alpha \rightarrow 0$  va  $\alpha_2 \rightarrow \pi$  bo'ladi, u vaqtda (10) formula quyidagicha ko'rinishga keladi:

$$B = \frac{\mu_0 I}{4\pi b} \quad (11)$$

Bu formula taxminan to'g'ri chiziqli o'tkazgichning o'rtasiga to'g'ri kelgan maydonni aniqlashga imkon beradi.

To'g'ri chiziqli cheksiz uzunlikdagi o'tkazgichning magnit induksiya chiziqlarining manzarasi esa 2 a rasmda ko'rsatilgan.

Bio-Savar-Laplas qonuni bo'yicha C nuqtada o'tkazgichning elementar qismi  $dl$  tomonidan hosil qilingan magnit induksiya (5-rasm) quyidagiga teng:



5-rasm

$$dB = \mu\mu_0 \frac{Idl \sin \alpha}{4\pi r^2} \quad (12)$$

Mazkur holda C nuqtada vektor perpendikulyar yoʻnalgan. Xuddi shunday yoʻnalishga oʻtkazgichning boshqa elementlari hosil qilgan magnit induksiya vektori ham ega boʻladi. Bu esa (12) dagi vektorni yigʻindi algebraik ifoda bilan almashtirishga imkon beradi.

Shunday qilib, C nuqtada  $l$  tokli oʻtkazgich tomonidan hosil qilingan yigʻindi induksiyaning topish uchun (12) ifodaning yigʻindisini olish kerak, yoki integrallash kerak. Buning uchun  $r$  va  $dl$  ni  $\alpha$  oʻzgaruvchi orqali ifodalaymiz. Rasmdagi ANC uchburchakdan

$$NC = r = \frac{r_0}{\sin \alpha}, \quad (13)$$

Bu yerda  $r_0$  – C nuqtadan oʻtkazgich yoʻnalishiga tushirilgan perpendikulyarning uzunligi.

MNK uchburchakdan quyidagini topamiz

$$dl = \frac{MK}{\sin \alpha} \quad (14)$$

$dl$  juda kichik boʻlgani uchun, CMqCKqr deb olish mumkin. Shuning uchun

$$MK = r d\alpha = \frac{r_0}{\sin^2 \alpha} d\alpha \quad (15)$$

$r$  va  $dl$  ning qiymatlarini (15) formulaga qoʻysak,

$$dB = \mu_0 \mu \frac{I \sin \alpha}{4\pi r_0} d\alpha \quad (16)$$

C nuqtada  $l$  uzunlikdagi tokli oʻtkazgichning hosil qilgan magnit maydon induksiya quyidagicha boʻladi:

$$B = \int_{\alpha_1}^{\alpha_2} \mu\mu_0 \frac{I \sin \alpha}{4\pi r_0} d\alpha = \mu\mu_0 \frac{I}{4\pi r_0} \int_{\alpha_1}^{\alpha_2} \sin \alpha d\alpha, \quad (17)$$

Bu yerda  $\alpha_1$  va  $\alpha_2$  - oʻtkazgich boshlangʻich va oxirgi uchlaridan C nuqtaga oʻtkazilgan radius-vektorlar bilan oʻtkazgichning yoʻnalishi orasidagi burchaklar.

Keyingi ifodani integrallasak, quyidagiga ega boʻlamiz:

$$B = \mu\mu_0 \frac{J}{4\pi r_0} (\cos \alpha_1 - \cos \alpha_2), \quad (18)$$


Agar oʻtkazgich cheksiz uzun boʻlsa ( $l \rightarrow \infty$ ), u holda  $\alpha_1 \rightarrow 0, \alpha_2 \rightarrow 180^\circ$  boʻladi. U vaqtda  $(\cos \alpha_1 - \cos \alpha_2) \rightarrow 2$ . U holda formula (18) quyidagi koʻrinishga ega boʻladi:

$$B = \mu\mu_0 \frac{I}{2\pi r_0} \quad (19)$$

**Aylanma tokning magnit maydoni.** Yopiq tokli o'tkazgichning magnit moment vektorini  $\vec{P}$  orqali ifodalash qulaydir, uning kattaligi yassi kontur bo'lgan holda tok kuchi  $I$  ning kontur yuzasi  $S$  ga ko'paytmasiga teng bo'ladi:

$$\vec{P} = I * S \quad (20)$$

Uning yo'nalishi kontur tekisligiga perpendikulyar bo'lib, Parma qoidasi bilan bog'lagandir. Agar Parma dastasini tok yo'nalishi bilan aylantirsak, uning ilgariylanma harakati  $\vec{P}$  vektorning yo'nalishini aniqlaydi (6-rasm).



6-rasm

Endi aylana ko'rinishdagi tokli kontur hosil qilgan magnit induksiyasini topamiz, soddalik uchun kontur o'qida yotgan nuqtani qaraymiz. O'ramning radiusini  $R$  bilan, tok kuchini  $I$  bilan, o'ram tekisligidan maydon qaralayotgan nuqttagacha bo'lgan masofani  $r$  bilan belgilaymiz.

Alohida tok elementi  $Idl$  tomonidan hosil qilingan induksiya vektori  $d\vec{B}$ , (17) ga asosan tok elementi va uni kuzatish nuqtasi bilan qo'shuvchi kesma hosil qilgan tekislikka perpendikulyar bo'ladi (7a)- rasm) bu tekislik punktir bilan tasvirlagan)

$d\vec{B}$  vektorning absolyut qiymati  $dB = \frac{\mu_0 Idl}{4\pi(r^2 + R^2)}$ , tok elementidan kuzatish


nuqtasigacha bo'lgan masofa  $\sqrt{r^2 + R^2}$  ga teng, sin  $\alpha \approx 1$ , chunki  $\alpha \approx \pi/2$  ga teng. Ko'rsatish mumkinki, barcha o'ram elementlari tomonidan hosil qilingan vektorlar  $d\vec{B}$  konus toki bo'yicha joylanadi (7b rasm). Bu vektorlarni qo'shish uchun ulardan har birini ikkita tashkil etuvchi:  $d\vec{B}_{||}$  kontur o'qiga parallel va  $d\vec{B}_{\perp}$  o'qqa perpendikulyar tashkil etuvchilar yig'indisidan iborat bo'ladi (7a)- rasm). Qo'shilganda  $d\vec{B}_{\perp}$  tashkil etuvchilar o'zaro bir birini yo'qotadi, chunki  $d\vec{B}_{\perp}$  va  $d\vec{B}_{\perp}$  bir biriga diametral qarama-qarshi bo'lgan tok elementlari  $Idl$  va  $Idl$  kattaligi jixatidan teng va yo'nalishi jihatidan qarama-qarshidir (7 b rasm).

Shunday qilib, izlanayotgan vektor  $\vec{B}$  barcha  $\vec{B}_{||}$  lar yig'indmisi orqali aniqlanadi, demak, u o'ram o'qi bo'yicha yo'naladi va  $B = \int \alpha dB_{||}$  kattalikka ega bo'ladi.  $d\vec{B}_{||}$  kattalikni uchburchaklarning o'xshashligidan (7 b) -rasm) hisoblash

mumkin:  $\frac{dB_{||}}{B} = \frac{R}{\sqrt{r^2 + R^2}}$ , bundan  $dB_{||} = B \frac{R}{\sqrt{r^2 + R^2}} = \frac{\mu_0 Idl}{4\pi} \frac{R}{(r^2 + R^2)^{3/2}}$ . Bu

ifodani o‘ramning barcha elementlari orqali integrallasak, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$B = \int dB_{\parallel} = \int \frac{\mu_0 I dl}{4\pi} \frac{R}{(r^2 + R^2)^{3/2}} = \frac{\mu_0 I}{4\pi} \frac{R}{(r^2 + R^2)^{3/2}} \int_0^{2\pi R} dl = \frac{\mu_0 I 2\pi R^2}{4\pi(r^2 + R^2)^{3/2}} \quad (21)$$



7 –rasm

$I\pi R^2 = P$  - o‘ramning magnit momentini hisobga olib, oxirida qo‘yidagiga ega bo‘lamiz:

$$B = \frac{2\mu_0 P}{4\pi(r^2 + R^2)^{3/2}} \quad (22)$$

Bu formuladan kelib chiqadiki, maydon kontur markazida (rq0) maksimal bo‘lib, masofa oshishi bilan kamayib boradi.

Juda uzoqda joylashgan nuqtalar uchun  $R^2$  ni  $r^2$  ga nisbatan tashlash mumkin, natijada quyidagi taqribiy formulani olamiz:

$$B = \frac{2\mu_0 P}{4\pi r^3} \quad (23)$$

Ko‘rsatish mumkinki, bu formula istalgan shakldagi kontur uchun o‘rinlidir. Shuni eslatib o‘tamizki, bu dipolning elektr maydon kuchlanganligi kabi bo‘ladi. Dipol bilan tokli konturning analogiyasi tasdiqlandi va tashqi maydonlar bir xil xarakterga ega bo‘ladi.

**Solenoidning magnit maydoni.** Solenoid deb, juda ko‘p sondagi bir biriga zich qilib o‘ralgan tokli o‘tkazgichlardan iborat bo‘lgan silindrik g‘altakka aytiladi. Solenoidni bir xil radiusli ketma-ket ulangan aylanma toklar sistemasi deb ham qarash mumkin.



## 8-rasm

Bio-Savar-Laplas qonunidan foydalanib solenoid ichidagi magnit maydon induksiyasini toppish formulasini keltiramiz. Solenoid uzunligi uning diametridan juda katta bo'lgan holda solenoid ichidagi yoki o'qidagi nuqtadagi magnit maydon induksiyasi quyidagiga teng:

$$B = \mu\mu_0 \frac{IN}{l} = \mu\mu_0 In \quad (24)$$

Bu yerda  $I$  – g'altakdagi tok kuchi,  $l$  – g'altak uzunligi,  $N$  – o'ramlar soni,  $n = \frac{N}{l}$  - g'altak uzunligiga to'g'ri keluvchi o'ramlar soni.

Magnit maydon kuchlanganligini hisoblashning juda ko'p usullari mavjud. Masalan, vektor potensial usuli, to'la tok usuli, Gauss usuli va hakoza. Bu usullardan biz tegishli joylarda foydalanamiz.

## II. O'lchash uslubining nazariyasi va qurilmasining tavsifi

Bio –Savar qonuniga asosan  $I$  tok o'tayotgan o'tkazgich atrofida  $P$  nuqtadagi magnet maydoni o'tkazgichning cheksiz kichik qismlarining magnit maydonlarining ulushlarining yig'indisidan iborat bo'ladi

$$dB = \frac{\mu_0}{4\pi} \cdot \frac{I}{r^2} dl \times \frac{\vec{r}}{r}, \quad (25)$$


bu yerda  $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7} \frac{Vs}{Am}$

O'tkazgichning uzunligi va yo'nalishi dsvector yordamida ifodalanadi. O'tkazgichning kichik qismidan  $P$  nuqtaga o'tkazilgan radius vector orqali berilgan (1-rasmga qarang).


Shuning uchun umumiy magnit maydon integral hisob yordamida aniqlanadi. Bu holda analitik yechim faqat ma'lum simmetriyaga ege bo'lgan o'tkazgichlar uchun hisoblanishi mumkin bo'ladi. Masalan cheksiz uzun o'tkazgichning magnit maydoni o'tkazgich o'qidan  $r$  masofada (2)

$$dB = \frac{\mu_0}{4\pi} I \frac{2}{r} \quad (26)$$

va maydon kuch chiziqlari silindr o'qi atrofida konsentrik shaklda bo'ladi. (2 –rasmga qarang)



1 –rasm. Tokli o'tkazgich magnit maydonini integral usulda hisoblash.




2 – rasm. Cheksiz uzun tokli to'g'ri o'tkazgichning magnit maydoni.



Radiusi R bo'lgan aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning aylana o'qi ustida halqa markazidan x masofadagi nuqtaning magnit maydoni

$$dB = \frac{\mu_0}{4\pi} \cdot I \cdot 2\pi \frac{R^2}{(R^2 + x^2)^{3/2}} \quad (27)$$

Uning maydon kuch chiziqlari aylana o'qiga parallel bo'ladi. (3-rasmga qarang) Bu tajribada yuqorida qayd etilgan o'tkazgichlarning magnit maydoni mos ravishda aksial yoki tangensial B-probe metodi yordamida o'lchanadi. B-probe ning Xoll datchigi yupqa plastinka shaklida bo'lib, u magnit maydonining o'z yuzasiga perpendikulyar bo'lgan komponentalariga sezgir bo'ladi. Shuning uchun magnit maydoni kuchlanganligining nafaqat qiymatini balki uning yo'nalishini ham aniqlash mumkin. To'g'ri o'tkazgich uchun magnet oqimi zichligi B ning r masofadan bog'liqligi o'rganiladi, aylanma shakldagi otkazgich uchun esafazoviy koordinata x dan bog'liqligi o'rganiladi. Bundan tashqari, magnit maydon induksiyasi B va tok kuchi I o'rtasidagi proportsionallik ham tekshirib ko'riladi.



3-rasm. Aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning magnit maydoni.

### **III. Ishni bajarish tartibi**

#### **Eksperimental qurilma va tajribalarni o'tkazish**


##### **a) To'g'ri o'tkazgichning magnit maydoni.**

Eksperimental qurilma 4 –rasmda tasvirlangan.


- Kichik optik qurilmani shtativga o'rnatish va uni gorizantal xolatda -(a) shtepsel uchun tutgichni Leyboldga maxkamlang.
- To'g'ri o'tkazgich uchun tutgichni maxkamlang , to'g'ri o'tkazgichni unga o'rnatish va katta tokli manbaga ulang.
- Tangensial B-probe ni teslametr ga ulang va teslametrni nolini o'rnatish (teslametr uchun ko'rsatmalarga qarang)
- Tangensial B-probe ning chap uchini Leyboldga shkalada 50.0 sm belgiga To'g'irlab va to'g'ri o'tkazgich o'rtasining balandligiga to'g'irlab o'rnatish.
- To'g'ri o'tkazgichni Xoll datchigi tomon deyarli unga tegadigan darajada yaqin qilib o'rnatish.(Sq0 bo'lsin)
- Tok kuchi I ni xar 2 A qiymatga 0 A dan, 20 A gacha oshirish. Xar safar B magnit maydonini o'lchang, qiymatini yozib oling.
- Iq20 A ga B-probe ni unga tomon qadam-ba qadam siljiting, B magnet maydonini masofaning funksiyasi sifatida o'lchang va qiymatlarini yozib oling.joylashtiring.

**b) Aylanma xalqa shaklidagi o'tkazgichning magnit maydoni**  
**Ekspperimental qurilma 5-rasmda tasvirlangan.**

- -To'g'ri o'tkazgich uchun tutgichni o'tkazgich halqa uchun adapter bilan almashtiring va unga diametric 40 mm bo'lgan o'tkazgich halqani biriktiring.
- Otkazgich halqani ulash kabtlari yordamida tutgichning (a) shtepselli elementining pozetkalariga ulang.
- Aksial B-probe ni teslametrga ulang va teslametrning nolini o'rnatish (teslametr uchun ko'rsatmalarga qarang)
- Aksial B-probe ni Leybold ga chap uchi 70.0 sm shkala belgisiga to'g'rilab joylashtiring. B-probe ni o'tkazgich halqa markaziga to'g'rilab joylashtiring.
- O'tkazgich halqani imkoni boricha Xoll datchigiga aniq joylashtiring.
- I tok kuchini har safar 2 A qiymatga 0 A dan to 20 A qiymatgacha oshiring. Har safar magnit maydonini o'lchang va qiymatini yozib oling.
- Iq20 A da B –probni chap tarafga va ong tarafga qadam –baqadam siljiting, har safar magnit maydonini o'lchang, ya'ni magnit maydonini fazoviy koordinata x ning funksiyasi sifatida o'lchang. O'lchagan qiymatlarni yozib oling.
- 40 mm li o'tkazgich halqani 80 mm li o'tkazgich halqa bilan almashtiring va keyin 120 mm li o'tkazgich halqa bilan almashtiring. Barcha hollarda magnit maydonini fazoviy koordinata x ning funksiyasi sifatida o'lchang.



4 –rasm. To'g'ri o'tkazgichning magnit maydonini o'lchash uchun eksperimental qurilma.



5 –rasm. Aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning magnit maydonini o'lchash uchun eksperimental qurilma.

I, A	B, mT
0	
2	
4	
6	
8	
10	
12	
14	
16	
18	
20	

2-jadval. To'g'ri o'tkazgichning magnit maydoni o'tkazgich yuzasi va B-probe o'rtasidagi masofa  $s$  ning funksiyasi sifatida ( $I = 20 \text{ A}$ )

L, mm	B, mT
0	
1	
2	
3	
4	
5	
6	
7	
8	
9	
10	
15	
20	
25	
30	
40	

**b) Aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning magnit maydoni**

3-jadval. 40 mm li aylanma halqa magnit maydoni  $I$  tok kuchining funksiyasi sifatida

I, A	B, mT
0	
2	
4	
6	
8	

10	
12	
14	
16	
18	
20	


4-jadval. Aylanma halqalarning magnit maydoni  $x$  masofaning funksiyasi sifatida

$x$ , mm	$B$ , mT	$X$ , mm	$B$ , mT	$X$ , mm	$B$ , mT
$2R = 40$ mm		$2R = 80$ mm		$2R = 120$ mm	
-10	0.005	-10	0.015		
-7.5	0.015	-9	0.02		
-5	0.035	-8	0.03		
-4	0.06	-7	0.04	-9	0.04
-3	0.11	-6	0.05	-7.5	0.06
-2.5	0.14	-5	0.08	-6	0.08
-2	0.21	-4	0.11	-4.5	0.11
-1.5	0.33	-3	0.16	-3	0.15
-1	0.45	-2	0.23	-1.5	0.19
-0.5	0.58	-1	0.29	0	0.21
0	0.64	0	0.32	1.5	0.19
0.5	0.58	1	0.3	3	0.15
1	0.46	2	0.24	4.5	0.11
1.5	0.32	3	0.17	6	0.07
2	0.22	4	0.11	7.5	0.05
2.5	0.15	5	0.08	9	0.03
3	0.1	6	0.05		
4	0.05	7	0.04		
5	0.035	8	0.025		
7.5	0.01	9	0.02		
10	0.005	10	0.015		


### Hisoblashlar va natijalar

#### c) To'g'ri o'tkazgichning magnit maydoni.


B magnit maydonining I tok kuchidan bog'liqligi 6 –rasmda grafik ravishda ko'rsatilgan. O'lchash aniqligi chegarasida o'lchangan qiymatlar ( 1-jadvalga qarang) grafikning koordinata boshidan o'tuvchi to'g'ri chiziq ustida yotadi, ya'ni B magnit maydoni I tok kuchiga to'g'ri proporsional bo'ladi. 7-rasmda 2-jadvaldagi o'lchangan qiymatlar grafik ravishda ko'rsatilgan. O'tkazgichning yuzasi va B-probe ning uchi o'rtasidagi masofaning jadvalda berilgan qiymatlari (1) tenglamadagi o'tkazgich o'qidan boshlab hisoblangan masofadan farq qilishi fakti inobatga olingan. Bu farq  $r - s$  q 3 mm bo'lib, u to'g'ri o'tkazgich radiusi  $r$  q 2 mm va B-probe ning uchi bilan Xoll datchigi markazi orasidagi masofa  $s_0$  q 1 mm larning yig'indisidan iborat. (4-rasmga qarang). 4-rasmda chizilgan grafik (1) tenglama yordamida I q 20 A tok uchun hisoblangan. 8-rasmda ko'rsatilgan grafikda u koordinata boshidan o'tuvchi to'g'ri chiziqqa mos keladi.



6-rasm. To'g'ri o'tkazgichning magnit maydoni tok kuchining funksiyasi sifatida.




7-rasm. To'g'ri o'tkazgichning magnit maydoni o'tkazgich o'qidan masofa  $r$  ning funksiyasi sifatida.




8-rasm. To'g'ri o'tkazgichning magnit maydoni ( $B$ ) q  $f(r)$  funksiyasi ko'rinishidagi bog'lanish grafigi.

#### d) Aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning magnit maydoni

9-rasmda aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning magnit maydonining  $I$  tok kuchidan bog'liqligi ko'rsatilgan. Bu holda ham o'lchangan qiymatlar (3-jadval) va grafikda chizilgan koordinata boshidan o'tuvchi to'g'ri chiziq  $B$  magnit maydoni  $I$  tok kuchiga to'g'ri proporsional ekanligini tasdiqlaydi. 10-rasmda uchta aylanma halqa shakldagi o'tkazgichlar uchun  $B$  magnit maydonining  $x$  fazoviy koordinatadan bog'liqligi ko'rsatilgan. Rasmda chizilgan grafiklar (2) tenglama yordamida  $I$  q 20 A tok uchun hisoblab topilgan.



9-rasm. 40 mm li aylanma halqa magnit maydoni  $I$  tok kuchining funksiyasi sifatida.



10-rasm.  $R$  radiusli aylanma halqa magnit maydoni  $B$  ning fazoviy koordinata  $x$  ning funksiyasi sifatida. ( )  $R_q60$  mm, ( \* )  $R_q40$  mm, ( O )  $R_q20$  mm,

### Nazorat savollari

1. Tokning magnit maydoni va uni Ersted tomonidan aniqlash tajribasini tushuntirib bering.

2. Magnit maydonining xarakteristikalar: kuch chiziqlari, magnit maydon kuchlanganligi va superpozitsiya prinsipini tushuntiring.

3. Tok elementi deb nimaga aytiladi va uning vektor tabiati nimadan iborat.

4. Tok elementining magnit maydoni bilan elektrostatikadagi sinash nuqtaviy zaryadining maydoni o'rtasida qanday o'xshashlik bor.

5. Magnit induksiyasi, uning o'lchov birligi, moduli va yo'nalishi qanday aniqlanadi. Magnit induksiyasining elektrostatik analogi (o'xshashligi) qanday bo'ladi?

6. Bio-Saavar-Laplas qonunining mohiyati nimadan iborat va undan to'g'ri chiziqli tokning, aylanma tokning va solenoidning magnit maydonini hisoblab chiqaring va uni magnit maydonini hisoblashning boshqa usullari: magnit skalyar potensial, magnit vektor potensial va to'la tok qonuni orqali olingan natijalar bilan taqqoslang.

7. Harakatdagi elektr zaryadining magnit maydoni qanday hisoblanadi va uni tajribada kim aniqladi?

**Laboratoriya ishi №5**  
**TAQASIMON MAGNIT MAYDONIDA TOKLI O'TKAZGICHGA**  
**TA'SIR ETUVCHI KUCHNI O'LCHASH**

**Ishning maqsadi:**

- Taqasimon magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni tok kuchining funksiyasi sifatida o'lchash.
- Taqasimon magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni o'tkazgich uzunligining funksiyasi sifatida o'lchash.
- Taqasimon magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni magnit maydoni va tok yo'nalishi o'rtaidagi burchakning funksiyasi sifatida o'lchash.
- Magnit maydonini hisoblash

**Kerakli asbob-uskunalar:** Taqasimon magnit (51021), kuch sensori (314261), O'tkazgich halqalar to'plami (51634), O'tkazgich halqalarlar uchun taglik (314265), dinamometr (314251), ko'p o'zakli ulash kabeli, 6-qutb (50116), yuqori energiyali manba (52155), kichik shtativ, V-shaklida (30002), Shtativ tayoqchasi, 47 cm (30042), Leybold ko'ptutgich (30101), ko'ndalang kesimi  $2.5 \text{ mm}^2$  bo'lgan ulash kabellari

**I. Nazariy ma'lumotlar**

**1.1. Magnit maydoni.** Magnit maydoni materiyaning mavjudlik shakllaridan biri-elektromagnit maydonning bir turidir. Magnit maydoni o'z navbatida o'zgarmas (stasionar) va o'zgaruvchan (nostasionar) turlarga bo'linadi. Magnit maydonini o'rganish bilan bog'liq tarixiy (Ersted, Amper va boshqalar tomonidan o'tkazilgan) tajribalar (tokning doimiy magnit strelkasiga, tokning tokka, doimiy magnitning tokka va doimiy magnitning doimiy magnitga ta'sirini o'rganish) shuni ko'rsatadiki, o'zgarmas magnit maydonining manbai tekis harakatdagi elektr zaryadi yoki zaryadlar oqimi, ya'ni o'zgarmas elektr tokidir. O'tkazgichlardagi erkin zaryadlarning tartibli tekis harakati hosil qiladigan tok o'tkazuvchanlik toki yoki makrotok deyiladi. Doimiy magnit atrofida hosil bo'ladigan magnit maydonini ham, klassik Amper gipotezasiga ko'ra aylanma elektr toklari majmuasi hosil qiladi. Bu toklar mikrotoklar deyilib, ularni doimiy magnitni tashkil qilgan atomlarning (Fe, Ni, Co, Gd, Sm va ularning o'zaro birikmalaridagi) yadrolari atrofida va o'z o'qlari atrofida tekis aylanma harakat qilayotgan kechikib to'ladigan 3d va 4f-qobiqlardagi elektronlar hosil qiladi. Doimiy magnitni magnitlash jarayonida mikrotoklarning magnit maydonlari, tashqi magnit maydoni ta'sirida bir tomonga yo'naltirilib (qo'shilib) yig'indi magnit maydoni hosil qilinadi.

O'zgaruvchan magnit maydonining manbai o'zgaruvchan harakatdagi elektr zaryadi (yoki zaryadlar majmuasi), ya'ni o'zgaruvchan elektr tokidir va



o'zgaruvchan (nostasionar) elektr maydonidir. Magnit maydonini tavsiflovchi asosiy kattaliklardan biri - magnit maydoni induksiyasi vektori deb ataladigan kattalikdir. U maydonga kiritilgan sinov (tekshirish) vositasiga maydonning ta'sirini o'zida mujassam qilganligi uchun xam unga magnit maydonining kuch xarakteristika deyiladi. Magnit maydonini sinash vositalariga quyidagilar kiradi: 1) tok elementi, 2) tokli ramka, 3) doimiy magnit strelkasi va 4) xarakatdagi zaryadli zarracha. Magnit maydoni induksiyasi vektorining (maydonning) yo'nalishi va modulini tajribada aniqlash uchun shu sinov vositalarining istalgan bittasidan foydalanish mumkin. Quyida shu masala navbat bilan, qisqacha qarab chiqilgan.

### **1.2. Bir jinsli magnit maydonining tok elementiga ta'siri.**

O'tkazgichdan oqayotgan tok kuchini ( $J$ ) shu o'tkazgichning elementar uzunlik vektoriga ( $\vec{dl}$ ) (yo'nalishi tok yo'nalishi bilan bir xil bo'lgan) ko'paytmasiga ( $J\vec{dl}$ ) **tok elemetri vektori** deb ataladi. Induksiyasi  $\vec{B}$  ga teng bo'lgan bir jinsli magnit maydonining tok elementiga (umumiy holda tokli o'tkazgichga) ko'rsatadigan ta'sir kuchining kattaligi quyidagi ifoda bilan aniqlanishini Amper tajribda aniqlagan:

$$F_A q J dl B \sin \alpha. \quad (1)$$

Bunda  $\alpha = (J\vec{dl} \wedge \vec{B})$ , ya'ni tok elementi va magnit maydoni yo'nalishlari orasidagi burchak.  $\vec{F}_A$  – Amper kuchining yo'nalishi vektor ko'paytma, o'ng vint yoki chap qo'l qoidalari bilan aniqlanadi (1)ning Vektor ko'rinishi:

$$\vec{F}_A = [J\vec{dl} \cdot \vec{B}] \quad (2)$$


Bu qoidalarining mazmuni 1-rasmda o'z aksini topgan.

Tok elementi maydonga tik joylashganda ( $\alpha \approx 90^\circ$ ,  $\sin \alpha \approx 1$ ), unga maydon tomonidan ta'sir qiladigan kuch eng katta ( $F_A \approx F_{Amax}$ ) bo'ladi, ya'ni

$$F_{Amax} q J dl B \quad (3)$$

Bu ifodadan, sinov vositasi –  $J\vec{dl}$  tok elementiga maydonning ta'siri kuchini o'lchash orqali, magnit maydoni induksiyasining qiymatini tajribada hisoblab topishga imkon beradigan ifodani olish mumkin:

$$B = \frac{F_{Amax}}{J dl} \quad (4)$$



### 1.3. Bir jinsli magnit maydonining tokli ramkaga ta'siri.

Bir jinsli magnit maydonini sinash vositasi sifatida o'lchamlari  $a, b$  va yuzasi  $S$  kichik bo'lgan va  $J$  tok oqayotgan ramkani olish mumkin. Uning asosiy xarakteristikalaridan biri – magnit momenti ( $\vec{P}_m$ ) bo'lib, uning kattaligi va yo'nalishi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:



$$\vec{P}_m = J \cdot S \vec{n} \quad (5)$$

$\vec{P}_m$  ning yo'nalishi ramkaga o'tkazilgan birlik musbat normal ( $\vec{n}$  q1) yo'nalishi bilan mos tushadi.  $\vec{n}$  ning yo'nalishi esa o'ng vint qoidasi bo'yicha aniqlanadi: ramka konturini aylanib chiqish yo'nalishimiz (yoki ramkadagi tokning aylanish yo'nalishi) o'ng vintning aylanma harakatiga moslanganda,  $\vec{n}$  ning yo'nalishi (demak  $\vec{P}_m$  ning yo'nalishi) vintning ilgarilanma harakatiga mos tushadi (2-a,b rasm).

Ramkaning  $b$  va  $a$  tomonlaridagi tok elementlariga ( $\theta$  va  $\vec{J}_a$ ) maydon tomonidan (1) ifoda bilan aniqlanadigan, Amper kuchi ta'sir qiladi. Ramka maydonga, uning konturi tekisligi maydon yo'nalishi bilan mos keladigan qilib joylashtirilganda (2-a rasm), uning yuqori va pastki  $a$  tomonlari uchun, mos ravishda,  $\alpha$  q180° va 0° bo'lgani uchun  $F_A$  q1  $F_{Amin}$  q0, chap va o'ngdagi  $b$  tomonlari uchun esa  $\alpha$  q90° bo'lgani uchun

$$F_A q F_{Amax} q J b B \quad (6)$$

bo‘ladi. Bu ifoda bilan qiymati aniqlanadigan juft kuchlar (yelkasi  $a$  ga teng bo‘lgan) ta’sirida ramka vertikal  $0_10_1$  o‘q atrofida buriladi. Ramkaning maydondagi 1a-rasmdagidek holatida  $[\alpha = (\vec{Jb}, \vec{B}) = (\vec{P}_m, \vec{B}) = \beta = 90^\circ]$  unga maydon tomonidan ta’sir qiladigan juft kuch momenti ham eng katta ( $M_{\max}$ ) bo‘ladi.



2-rasm

$M_{\max}$  ning qiymatini aniqlovchi ifodani quyidagicha keltirib chiqarish mumkin ( $\alpha, \beta < 90^\circ$  holda):

$$M_{\max} = q F_{A\max} \cdot a q J b B a q J s B q P_m B, \quad (7)$$

$\alpha < 90^\circ$  va  $0^\circ < \beta < 90^\circ$  bo‘lgan umumiy holda esa ramkaga maydon tomonidan ta’sir qiladigan kuch momenti quyidagicha topiladi:

$$M_{\max} = q P_m B \sin \beta \quad (8)$$

Bu ifodaning vektor ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\vec{M} = [\vec{P}_m \cdot \vec{B}] \quad (9)$$


$\vec{M}_{\max}$  ning yoʻnalishini oʻng vint qoidasi boʻyicha aniqlash 2v,g-rasmlarda tasvirlangan. Demak, ramkaga maydon tomonidan  $\beta q \alpha q 90^0$  boʻlgan holda eng katta kuch momenti taʼsir qilib, bu moment uni  $\alpha q 90^0$  va  $\beta q 0^0$  boʻlgan holatgacha (yaʼni  $\vec{P}_m \uparrow \uparrow \vec{B}$  boʻlganicha) buradi. Shunda ramka maydonda tinch holatda qoladi va uning  $\vec{P}_m$  – magnit momenti yoʻnalishi maydon yoʻnalishini (yaʼni  $\vec{B}$  vektorning yoʻnalishini) aniqlaydi.  $\vec{B}$  – vektorning moduli (7) ifodadan topiladi:

$$B = \frac{M_{\max}}{P_m} = \frac{M_{\max}}{J_s} \quad (10)$$

Demak, tokli ramka maydonda 2-a rasmda tasvirlanganidek holatda joylashtirilganda ( $\alpha q \beta q 90^0$ ), unga maydon tomonidan taʼsir qiladigan juft kuch momentining eng katta qiymatini, hamda  $J$  va  $S$  larni oʻlchansa shu maydon induksiyasini (10) ifoda yordamida hisoblab topish mumkin boʻladi. Biroq,  $M_{\max}$  qiymatini oʻquv laboratoriyasi sharoitida oʻlchash mushkul ishdur.

### **1.3. Bir jinsli magnit maydonining doimiy magnit strelkasiga taʼsiri.**

Qutblari magnit maydoniga, 3a-rasmdagidek, tik holatda joylashtirilgan doimiy magnit strelkasining har xil ismi ( $N, S$ ) qutblariga maydon tomonidan qarama-qarshi yoʻnalishda  $F_{\max}$  juft kuchlar taʼsir qiladi. Bu kuchning momenti taʼsirida u vertikal oʻq atrofida  $M q M_{\max}$  boʻlgan noturgʻun holatda (3a-rasm)  $M q M_{\min} q 0$  boʻlgan turgʻun holatgacha (3b-rasm) burilib toʻxtaydi. Shunda uning janubiy ( $S$ ) qutbidan shimoliy ( $N$ ) qutbga tomon yoʻnalish magnit maydonining ( $\vec{B}$  ning) yoʻnalishini aniqlaydi. Magnit strelkasi magnit momentining yoʻnalishini ham, uni tokli konturga oʻxshatib aniqlash mumkin. Haqiqatdan ham, magnit strelkasining xususiy magnit maydoni, uni tashkil qilgan atomlardagi aylanma mikrotoklar magnit maydonlarining koʻshilishidan (superpozitsiyadan) hosil boʻladi deyilsa, bunga ishonch hosil qilish mumkin. Shunda analogiya usuliga va 2a,b-rasmlarga asosan magnit strelkasining magnit momenti 3a-rasmdagidek yoʻnalgan boʻladi, deyish mumkin (aniqroq aytganda magnit strelkasining magnit momenti uning magnitlanish vektor ( $\vec{I}$ ) va hajmi ( $B$ ) orqali topiladi  $\vec{P}_m = \vec{I} \cdot B$ ). Xullas, tokli ramka uchun 1.2-bandda aytilgan barcha gaplar (sifat jihatdan) magnit strelkasi uchun ham oʻrinli boʻladi. Bu holda ham magnit maydoni induksiyasini (10) ifodadan foydalanib aniqlash mumkin. Biroq, tajribada magnit strelkasi uchun  $\vec{M}_{\max}$  va  $\vec{P}_m$  vektorlarning qiymatlarini oʻlchash oʻquv laboratoriyasi sharoitida mushkuldir. Ammo, magnit strelkasidan foydalanib magnit maydoni yoʻnalishini (3b-rasm boʻyicha) aniqlash maqsadga muvofiqdir ( $S \vec{N} \uparrow \uparrow \vec{B}$ ).



3-rasm.

**1.4. Bir jinsli magnit maydonining tekis harakatdagi zaryadli zarrachaga ta'siri.** Tekis harakatdagi musbat zaryadli zarrachaga magnit maydonining ta'sirini o'rganish bilan bog'liq tajribalar shuni ko'rsatdiki, agar zarracha maydon yo'nalishiga biror  $\alpha = (\vec{\vartheta}, \wedge \vec{B})$  burchak ostida to'g'ri chiziqli trayektoriya bilan kirib kelsa uning trayektoriyasi o'zgaradi. Bu zarrachaga maydon kuch bilan ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. Shu kuchga Lorens kuchi deyiladi.

Lorens kuchining ifodasini 1-rasmdagi  $J\vec{dl}$  tok elementiga ta'sir qiladigan Amper kuchini tahlil qilib keltirib chiqarish mumkin. Agar o'tkazgichning  $J\vec{dl}$  tok elementidan oqayotgan  $J$  tokni o'tkazgich ichida  $\vartheta$  tezlik bilan tekis ilgarilangan harakat qilayotgan  $q$  zaryadli erkin  $N$  ta zarracha hosil qiladi deb faraz qilinsa, ulardan bittasiga maydon tomonidan ta'sir qiladigan kuch – Lorens kuchi quyidagicha topiladi:

$$F_L = \frac{F_A}{N} = \frac{JdlB\sin\alpha}{N} \quad (11)$$

Bundagi

$$Jdl = \frac{q}{t} dl = N \cdot q \frac{dl}{t} = Nq\vartheta \quad (12)$$


Buni hisobga olib (11) dan quyidagini olish mumkin:

$$F_L = q\vartheta B\sin\alpha, \quad (13)$$

yoki bu ifodaning vektor ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$\vec{F}_L = q[\vec{\vartheta} \cdot \vec{A}] \quad (14)$$

Demak,  $\vec{F}_L$  ning yo'nalishi o'ng vint yoki chap qo'l qoidasi yordamida aniqlanadi. Bu qoidalar 4a,b-rasmlarda  $\alpha \neq 90^\circ$  bo'lgan holda tasvirlangan.



(13) ifodadan  $\alpha \approx 90^\circ$  bo'lgan xususiy holda quyidagi ifoda olinadi:

$$F_L = F_{L\max} = qvB \quad (15)$$

Shunday qilib, agar zarracha maydonga tik yo'nalishda  $\vec{v} = \vec{v}_{\text{const}}$  tezlik bilan kirib kelsa, unga yo'nalishi  $\vec{F}_{L\max} \perp \vec{v} \perp \vec{B}$  (4a-rasm) bo'lgan, eng katta Lorens kuchi ta'sir qiladi. Natijada, u maydon yo'nalishiga tik tekislikda (yz tekisligida) aylana trayektoriya bo'yicha tekis harakat qilib maydonda tutilib qoladi. Shunday tasavvur asosida o'ng vint qoidasi bo'yicha maydonning ( $\vec{B}$  ning) yo'nalishi aniqlanadi (4-v rasm).  $\vec{B}$  vektorining moduli esa (15) dan aniqlanadi:

$$B = \frac{F_{L\max}}{qv} \quad (16)$$


Agar tajribada  $F_{L\max}$  va  $v$  qiymatlari o'lchansa  $\vec{B}$  ning qiymatini (16) ifoda bo'yicha hisoblab topish mumkin. Biroq  $F_{L\max}$  va  $v$  larni oddiy o'quv laboratoriyasi sharoitida o'lchash mushkul ishdir.

Shunday qilib, magnit maydoni induksiyasi vektorining yo'nalishini va modulini aniqlash maqsadida yuqorida qarab chiqilgan to'rtta sinov vositasining istalgan biridan foydalanish mumkin. Biroq, yuqorida tokli ramka, magnit sterelkasi va harakatdagi zaryad kabi sinov vositalaridan foydalanib, o'quv laboratoriyasi sharoitida bu vazifani bajarish mushkulligi haqida alohida qayd etilganini inobatga olsak, shu maqsadga erishish uchun, faqat tok elementidan foydalanish eng qulay ekanligi kelib chiqadi.

## **II. O'lchash uslubining nazariyasi va qurilmasining tavsifi**

Magnit induksiyasi, yoki soddaroq qilib aytganda magnit maydoni Bvector kattalik hisoblanadi. B magnit maydonida  $v$  tezlik bilan harakatlanayotgan  $q$  zaryadga tezlikning kattaligi va yo'nalishidan hamda magnit maydoni kuchlanganligidan va yo'nalishidan bog'liq bo'lgan kuch ta'sir etadi. Bu kuchni topish uchun quyidagi munosabatdan foydalaniladi

$$\vec{F} = q \cdot (\vec{v} \times \vec{B}) \quad (1)$$



Magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchning sxemali ko'rinishi.

Lorens kuchi deb ataluvchi  $F$  kuch ham vector kattalik bo'lib u  $\vec{v}$  va  $\vec{B}$  lar bilan aniqlanadigan tekislikka perpendikulyar ravishda tasir etadi. Tokli otkazgichga magnet maydonida ta'sir etayotgan kuchni tokni hosil qiluvchi va shu maydonda harakatlanayotgan individual zaryad tashuvchilarga ta'sir etuvchi kuch komponentlarining yig'indisi deb tushunish mumkin. (1) tenglamaga asosan Lorents kuchi  $\vec{v}$  dreif tezlik bilan harakatlanayotgan har bir individual  $q$  zaryadga ta'sir etadi. To'g'ri o'tkazgich uchun bu umumiy kuch

$$\vec{F} = q \cdot n \cdot A \cdot s \cdot (\vec{v} \times \vec{B}) \quad (2)$$

Bu yerda  $-n$  zaryad tasuvchilarning zichligi,  $A$  -o'tkazgichning kondalang kesimining yuzasi,  $s$  -o'tkazgichning magnit maydonida joylashgan qismining uzunligi.

Umumiy holda o'tkazgich kesimining yo'nalishini ko'rsatuvchi  $s$  vektorni kiritish qulay hisoblanadi. Bundan tashqari  $qnAv$  ko'paytma  $I$  tok kuchiga teng. Shunday qilib magnit maydonining tokli o'tkazgichga segmentiga ta'sir etuvchi kuchi quyidagi tenglamadan topiladi

$$\vec{F} = I \cdot (\vec{s} \times \vec{B}) \quad (3)$$

Bu kuchning absolyut qiymati quyidagi tenglamadan topiladi

$$F = I \cdot s \cdot B \cdot \sin \alpha \quad (4)$$

Bu yerda  $\alpha$  -magnit maydoni va tok kuchi yo'nalishi orasidagi burchak.

Bu tajribada 20 A gacha tok o'tkazadigan to'g'ri to'rt burchak shaklidagi otkazgich halqa taqasimon magnitning gorizonta maydoniga joylashtiriladi. Otkazgichning gorizonta qismiga ta'sir etuvchi kuch o'lchanadi. Otkazgichning ikki vertical qismiga ta'sir etuvchi kuchlar o'zaro kompensatsiyalanadi. O'tkazgich halqa kuch sensoriga ulanadi. U egilgan qismga ega bo'lib unga o'lchash asbobiga birlashtiriladi. Bu elementlarning elektr qarshiligi o'zgartirilishi mumkin. Qarshilikdagi o'zgarish hosil bo'ladigan kuchga to'g'ri proporsional. Unga

ulangan dinamometr qarshilikdagi o'zgarishni o'lchaydi va unga mos kuchni ko'rsatadi.

Eslatmalar: O'lchanayotgan kattalikning qiymati juda kichik bo'lganligi sababli o'lchashlarga tashqi ta'sirlar oson xalaqitberishi mumkin. Atrofdagi temperaturaning o'zgarishidan, siljishlardan va taqillashlardan saqlaning.

Dinamometr tajribalarning boshlanishidan kamida 15 minut qizdirilishi lozim. Dinamometrni ulanga kuch sensori bilan qurilma orqa tarafidagi asisiy kalit yordamida qoshing. 20 A tokni o'tkazgich halqadan va ta'minlash manbaidan faqat qisqa muddat (bir necha minut) o'tkazish mumkin.

Taqasimon magnitning magnit maydoni bir jinsli emas. Barcha tajribalar uchun o'tkazgich halqani taqasimon magnit qo'llari o'rtasida shunday joylashtiringki, magnit maydonining ta'siri imkoni boricha bir jinsli bo'lsin.

1 – rasmda ko'rsatilgandek qurilmani yig'ing.

-Qisqa tutashuv bo'lmasligi uchun o'tkazgich halqa uchun taglik kabelining izolyatsiyalanmagan qismi tegib qolmasligiga ishonch hosil qiling.

Dinamometr o'lchash diapozonining kalitini 2000 ga o'rnatish.

Tajribalar faqatgina tor qismga ega bo'lmagan o'tkazgich halqalardan foydalanib o'tkaziladi. Tokni o'rnatishning eng oson yoli tokni control qilish knopkasi (b) dan foydalanib bajarilishi mumkin. Kuchlanishni control qilish knopkasi (a) hamma vaqt o'ng tarafga burilgan holda turadi.

#### **a) Tokning funksiyasi sifatidagi o'lchashlar**

➤ Dastlab kengligi 8 sm bo'lgan o'tkazgich halqani kuch sensoriga ulang.


➤ Tokni control qilish (b) knopkasini hamma vaqt chap tarafga burilgan holda va kuchlanishni control qilish knopkasi (a) ni hamma vaqt o'ng tarafga burilgan holda o'rnatish. Keyin yuqori tok manbaini qo'shing.

➤ Dinamometrning nol nuqtasini kompensatsiyalash uchun SET pozitsiyasida COMPENSATION kalitini (c) tanlang.

➤ Tokni control qilish knopkasi (b) yordamida tokni 2 A qadam bilan 20 A gacha oshiring. Tokning har bir qiymati uchun dinamometrdan kuchni yozib oling va bu qiymatlarni tajriba kitobingizga yozing.

➤





1-rasm. Magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni o'lchash qurilmasi.

- Tok kuchini I q 0 A ga ornating va kuchning nol nuqtasini tekshiring.

**b) O'tkazgich uzunligining funksiyasi sifatidagi o'lchashlar**

- Dastlab kengligi 4 sm bo'lgan o'tkazgich halqani kuch sensoriga ulang.

- Dinamometrning nol nuqtasini kompensatsiyalash uchun SET pozitsiyasida COMPENSATION kalitini (c) tanlang.

- Tok kuchini I q 20 A sathga o'rnatish, Tokning bu qiymati uchun dinamometrdan kuchni yozib oling va bu qiymatlarni tajriba kitobingizga yozing.

- Tok kuchini I q 0 A ga ornating va kuchning nol nuqtasini tekshiring.


- Tajribani 2 sm li o'tkazgich halqa uchun takrorlang.

**c) Magnit maydoni va tokning yo'nalishlari orasidagi burchakning funksiyasi sifatidagi o'lchashlar**

**Tavsiya:** magnit maydonining bir jinslilikmasligini kompensatsiyalash uchun va xususiy aylanish burchagini o'rnatish uchun moslama yasang (1-rasmga qarang) . Bu moslama taqasimon magnitni kerakli holda joylashtirishni osonlashtiradi va aniqlashtiradi

- Tokni control qilish tugmasini chap tarafga buring va 4 sm kenglikdagi o'tkazgichhalqani kuch sensoriga ulang.

- Moslamani o'tkazgich halqaning o'rtiga shunday joylashtiringki, moslamaning markazi o'tkazgich halqaning gorizontol qismining o'rtasiga joylashsin va moslama chiziqlaridan biri o'tkazgich gorizontol qismiga parallel bo'lsin.



2 –rasm. Taqasimon magnitni kerkli holda joylashtirish uchun moslamadan foydalanish.


- Taqasimon magnitni shunday joylashtiringki, magnit maydon va o‘tkazgich gorizontal qismi parallel bo‘lsin.
- Dinamometrning nol nuqtasini kompensatsiyalash uchun SET pozitsiyasida COMPENSATION kalitini (c) tanlang.
- Tok kuchi sathini I q 10 A qilib o‘rnating.
- Magnitni 30° burchakli qadam bilan 360° gacha buring va har bir burchak uchun dinamometrdan kuchni yozib oling.
- Tok kuchini I q 0 A ga ornating va kuchning nol nuqtasini tekshiring.

### O‘lchash misollari va hisoblashlar

#### a) Tokning funksiyasi sifatidagi o‘lchashlar

1 –jadval. F kuch tok kuchining funksiyasi sifatida (s q 8 sm)

I, A	F, mN



3 –rasm. Tokli o‘tkazgichga ta’sir etuvchi F kuch I tok kuchining funktsiyasi sifatida ( 1-jadvalga qarang)

3 –rasmdagi grafikda o‘lchangan tajribada qiymatlar qiyaligi quyidagicha bo‘lgan to‘g‘ri chiziqni ko‘rsatadi

$$\frac{F}{I} = 2.26 \frac{mN}{A}$$

Sin90°q 1 ni hisobga olsak (4) tenglama bizga magnit maydoni uchun quyidagi qiymatni beradi


$$B = \frac{F}{I \cdot S} = \frac{2.26mN}{A \cdot 0.08m} = 28.5mT$$

Berilgan uzunlikdagi o‘tkazgich uchun kuch va tok kuchi o‘rtasidagi chiziqli munosabat (3) va (4) tenglamalar natijalarini tasdiqlaydi.

**b) O‘tkazgich uzunligining funksiyasi sifatidagi o‘lchashlar**

2 –jadval. F kuch o‘tkazgich uzunligi s ning funksiyasi sifatida (I q 20 A)

L, sm	F, mN
8	
4	
2	
1	



4-rasm. Tokli o‘tkazgichga ta’sir etuvchi F kuch o‘tkazgich uzunligi s ning funktsiyasi sifatida (2-jadvalga qarang)

4 -rasmdagi grafikda o‘lchangan tajribada qiymatlar koordinata boshidan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqni ko‘rsatadi

$$\frac{F}{S} = 572 \frac{mN}{m}$$

Magnit maydoni uchun quyidagi qiymatni hosil qilamiz

$$B = \frac{F}{S \cdot l} = \frac{572mN}{m \cdot 20A} = 28.6$$


Berilgan tok kuchi uchun kuch va o‘tkazgich uzunligi o‘rtasidagi chiziqli munosabat (3) va (4) tenglamalar natijalarini tasdiqlaydi.

c) Magnit maydoni va tokning yo‘nalishlari orasidagi burchakning funksiyasi sifatidagi o‘lchashlar

3 –jadval. F kuch o‘burchakning funksiyasi sifatida (s q 4 sm, I q 10 A)

	F, mN
0	
30	

60	
90	
120	
150	
180	
210	
240	
270	
300	
330	
360	



5-rasm. Tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi  $F$  kuch magnit maydoni va tokning o'rtasidagi  $\alpha$  burchakning funktsiyasi sifatida ( 3-jadvalga qarang)

5 -rasmdagi grafikda tajribada o'lchangan qiymatlar sinusoidal egri chiziq bo'lib (4) tenglamadan  $B_q 28.5 \text{ mT}$  magnit maydoni uchun hisoblangan natijalarni tasdiqlaydi

#### Nazorat sovellari

1. Tokning magnit maydonini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan (Lens, Amper va boshqalar tomonidan) tarixiy tajribalarning mazmunini ayting.
2. Magnit maydoni induksiyasi vektorining yo'nalishi va kattaligini aniqlash uchun qanday (sinash) vositalaridan hamda usullardan foydalaniladi?
3. Bir jinsli magnit maydonining tokli o'tkazgichga ta'sir qiladigan kuchining va tokli ramkaga ta'sir qiladigan aylantiruvchi kuch momentining ifodalarini yozib tahlil qiling. Shu asosda magnit maydoni induksiyasi vektorining yo'nalishini va qiymatini tajribada aniqlash usulining mohiyatini tushuntiring.
4. Magnit maydoni induksiyasi va kuchlanganligi vektorlarining fizik ma'nosini ayting. Ularga elektr maydoni uchun qanday vektorlar o'xshash hisoblanadi?
5. Doimiy magnit atrofida hosil bo'ladigan magnit maydonining manbaini hozirgi zamon modda tuzilishi nazariyasi bo'yicha tushuntiring.

### Adabiyotlar

1. Kortnev A.V., Rublev Yu.V., Kutsenko A.N. Praktikum po fizike. – Moskva: Vo'sshaya shkola, 1963. – 568 s.
2. Kalashnikov S.G. Elektr. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – 391 b.
3. Savelyev I.V. Umumiy fizika kursi. 2-tom. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – 368 b.
4. Telesnin R.V., Yakovlev V.F. Kurs fiziki. Elektrichestvo. – Moskva: Prosvechenie, 1970. – 487 s.
5. Frish S.E., Timoreva A.V. Umumiy fizika kursi. 2-tom. – Toshkent: O'qituvchi, 1972. – 567 b.

### Laboratoriya ishi №6

#### Xoll domiysini va germaniy tok tashuvchilarning konsentratsiyasini o'lchash.

**Ishning maqsadi:** Xoll effektini o'lchash. Yarimo'tkazgichlarda tok tashuvchilarning konsentratsiyasini va xoll doimiysini o'lchash.

**Kerakli asbob:**

4 ta ingichka mis simdan elektrodlar kavshalargan sof elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan germaniyli yarimo'tkazgich (o'lchamlari 0,9; 0,4; 0,03sm) bo'lgan plastinka va rasmda tasvirlangan kurilma.

**Ish to'g'risida tushuncha:**

Magnit maydoni-materiyaning maxsus formasidir. Magnit maydoni faqat harakatlanayotgan elektr zaryadlari atrofida, masalan tokli o'tkazgich atrofida hosil bo'ladi. U maydonga kiritilgan doimiy magnitlarga yoki tokli o'tkazgichga ko'rsatadigan kuch ta'siri orqali seziladi. Magnit maydonining asosiy xarakteristikasi magnit induktsiyasi vektorilar. Magnit induksisi V-vektor fizikaviy kattalik bo'lib, elektr toki o'tayotgan  $dl$ -uzunlik birligiga maydon tamonidan ta'sir qilayotgan  $dF$  kuchga miqdori tengdir.

$$B = \frac{1}{I} \frac{dF}{dl}$$

Bu ifoda Amper qonunidan kelib chiqadi:

$$dF = I \left[ d\vec{l} \cdot \vec{B} \right];$$

$$dF = IBdl \sin(\angle lB)$$

Magnit induktsiyasi vektori, xuddi elektr maydoni kuchlanganligi  $E$  kabi magnit maydonning ta'siriy xarakteristikasidir.  $V$  va  $E$  vektorlar maydonlarning kuch ta'sirini aniqlaydi va maydon hosil qilayotgan muhitning hossalriga bog'likdir:  $V$ ,  $d\vec{F}$  va  $d\vec{l}$  vektorlarning yo'nalishi chap qo'l qoidasi bilan

aniqlanadi. (1-rasm). Tok magnit maydoning magnit induksisi kuch chiziqlari parma qoidasi bilan aniqlanadi.

Magnit induksiya kuch chiziqlari har doim yopiq bo'lib, tokli o'tkazgichni o'rab turadi. Magnit induksiya bilan bir qatorda magnit kuchlanganlik – N kiritiladi:

$$\vec{H} = \frac{\vec{B}}{\mu\mu_c}$$

Bu erda  $\mu_c$ -magnit doimiysi,  $\mu$ -muxitning nisbiy magnit singdiruvchanligi bo'lib, qarayotgan muhitdagi tokli o'tkazgichga va harakatlanayotgan zaryadga ta'sir etuvchi kuchning vakuumdagiga nisbatan necha marta kattaligini ko'rsatadi.

Magnit maydonining kuchlanganligi N muhitning hossalarga bog'liq emas, N- elektrostatikadagi D vektorning analogidir.

### **Xoll effekti.**

Lorents kuchining ta'siri orqali Xoll effektini tushuntirish mumkin. Xoll effekti deb tok o'tayotgan metall yoki yarimo'tkazgichni tokning yo'nalishiga perpendikulyar yo'nalgan magnit maydoniga joylashtirilganda potentsiallar farqi va ko'ndalang elektr maydonining hosil bo'lishiga aytiladi.

Elektronlar metallda yoki elektron o'tkazgichli yarimo'tkazgichga maydon kuchlari (  $I$  ) ga qarshi  $\vartheta$ - tezlik bilan harakatlansin (2-a rasm).  $V$  – magnit maydoni elektronlarni  $F_n$  Lorents kuchi ta'sirida ma'lum tamonga (VSDE kesimga tamon) buradi.

Qarama - qarshi MNO R tamonida musbat zaryadlar to'planadi, VSDE va MNOR tekisliklar orasida potentsiallarfarqi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan ko'ndalang elektr maydoni ta'sirida elektronlarning og'ishiga ta'sir qilinadi. Teshik o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan yarimo'tkazgichda BSDE va MNOR tekisliklardagi zaryadlarning miqdori, ishoralari qarama-qarshi bo'ladi, (Lorents kuchi teshiklarga ta'sir qiladi, 2-6 rasm).

Agar MNOP va VSDE elektrodlar orqali sezgir galvanometr nolda turadi (  $\Delta U = 0$  ). Agar na'munasi (obrazets) magnit maydoniga joylashtirsak, galvanometr VSDE va MNOP tekisliklar orasidagi potentsiallar farqi mavjudligini ko'rsatadi. ( $\Delta U = 0$ ). Xoll potentsiallar farqining yo'nalishi moddaga tok tashuvchilarning ishorasini aniqlashga imkon beradi. Xoll potentsiallar farqini paydo bo'lishi natijasida hosil bo'ladigan ko'ndalang elektr zaryadlarini dastlabki harakat yo'nalishida og'ishga majbur qiluvchi Lorents kuchi bilan muvozanatlashmaguncha elektronlar (yoki teshiklarning) magnit maydonida og'ishi yuz beradi. Tok oqayotgan yarimo'tkazgichli jismni kuchlanganlik chiziqlari tok yo'nalishiga perpendikulyar yo'nalgan bir jinsli magnit maydoniga joylashtirsak, A va V qirralar orasidagi (2-rasm) ko'ndalang potentsiallar farqi hosil bo'ladi. Bu hodisa Xoll effekti deyiladi. Ko'ndalang potentsiallar farqi esa Xoll E.Yu.K. deyiladi.

Xoll E.Yu.K. ning hosil bo'lishi magnit maydonining ta'siri bilan aniqlanadi. Kuchlanganligi N – magnit maydonida tezlik bilan harakatlanayotgan zaryadga Lorents kuchi ta'sir qilishi ma'lum:

$$F_n = q[\vartheta \cdot H] \quad (1)$$

Bu kuchning moduli ko'paytirilayotgan vektorning absolyut qiymatlari bilan ular orasidagi burchak sinusining ko'paytmasiga teng:

$$F_n = q \mathcal{H} \sin \alpha \quad (2)$$

Agar  $\alpha = 90^\circ$  bo'lsa,  $F = q \mathcal{H}$ . Bu kuchning ta'sirida zaryad tashuvchilar, ishorasiga qarab, 1-rasmda ko'rsatilganday og'adi. Natijada E kuchlanganlikga ega bo'lgan ko'ndalang maydon hosil bo'ladi.



1-rasm.

Bu maydon elektr zaryadiga

$$F_x = q E_x \quad (3)$$

kuch bilan ta'sir qiladi.

kuchlar o'zaro tenglashmaguncha zaryadlarning ogishi davom etadi.

$$E_x \cdot q = q \mathcal{H} \quad (4)$$

Shu vaqta qarama-qarshi A va V qirralar orasida Xoll E.Yu.K. deb ataluvchi potentsiallar farqi hosil bo'ladi.

$$U_x = E_x d = \mathcal{H} d \quad (5)$$

Bu erda  $d$  - na'munaning kengligi,  $\mathcal{H}$  -ning kattaligini tok zichligi  $j$  orqali ifodalab

$$\mathcal{H} = \frac{j}{qn} = \frac{I}{q b n d} \quad (6)$$

hosil qilamiz.

Olingan ifodalani (5) ga qo'yib. Xoll E.Yu.K. uchun ifoda olamiz.

$$U_x = \frac{1}{qn} \cdot \frac{IH}{b} = R \frac{IH}{b} \quad (7)$$

Bu ifoda ko'rsatadiki, yarimo'tkazgichning qirralaridagi ikki qarama-qarshi nuqtalar orasida hosil bo'ladigan Xoll potetsiallar farqi tok kuchi  $I$  - ga va magnit maydon kuchlanganligi  $N$ -ga propotsional  $\frac{1}{nq}$  kasr Xoll koefitsiyenti deb

ataldi va elektronlar uchun  $R = -\frac{1}{n_e e}$  ga teng yoki (7) dan

$$R = \frac{U_x b}{IH} \quad (8)$$


Agar tok tashuvchilar konsentratsiyasi  $n_p$  bo'lgan teshiklar bo'lsa. Xoll koefitsiyenti

$$R = \frac{1}{n_p e} \quad \text{yoki} \quad R = \frac{U_x b}{IH} \quad (9)$$

Shunday qilib, Xoll koefitsiyenti bilgan holda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasini va ishorasi aniqlash mumkin ekan.

Xoll koefitsientining ishorasi qarab, elektron yoki teshik tipdagi yarimo'tkazgich bilan ishlayotganimizni aniqlash mumkin, undan tashqari o'tkazuvchanlik mexanizmi aniq bo'lgan qandaydir moddada Xoll koefitsiyentini o'lchab, katta aniqlik bilan zaryadlar konsentratsiyasini hisoblash mumkin.

$$n = \frac{1}{Rq} = \frac{IH}{qU_x b} \quad (10)$$



2-rasm.

**Qurilmaning tavsifi.** Xoll doimiysini va tok tashuvchilar konsentratsiyasini o'lchashga mo'ljallangan qurilmaning soddalashtirilgan sxemasi 3-rasmda ko'rsatilgan  $I_{\text{ЭМ}}$  - elektromagnit orqali o'tuvchi tokning regulyatori. EM – elektromagnit A – EM orqali o'tayotgan tokning to'g'irlagichini (sozlagichi)


$mA$  - namuna orqali o'tayotgan tokning sozlagichi.  $mV$  - millivolmetr  $И1$  va P4-o'lchagichlar (pereklyuchatel)  $И1И$  -hamma qurilmalarning ta'minot manbai. Tekshiriladigan namunalar to'g'ri burchakli paralelopipedlar formasida bo'ladi. Namuna EM orasiga joylashtirilgan kassetaga maxkamlangan. Elektronlar bilan yaxshi kontakt olish uchun namunalarning kontakt maydonlari metall qatlamlari bilan qoplangan.

### O'lchash va o'lchash natijalariga ishlov berish.

1. O'lchashdan oldin qurilmaning tavsifi bilan diqqat bilan tanishing.
2. Kurilmani o'lchashdan oldin P1 pereklyuchatelni «otkl» holatiga keltiring, P2 va P3 «+» holatiga keltiring, P4 –ni «20MV» holatiga,  $I_{\text{ЭМ}}$  va  $I_{\text{о6р}}$  regulyator (sozlagich) larni strelkasiga qarshi oxrigacha burang.



3. Qurilmani 220V manbaga ulab, P1 tumblarni ko'shing va 5-10 minut qizdiring.



3-rasm.

4. « $I_{опр}$ » - sozlagich yordamida namuna orqali 10 mA ml tok o'tkazing.

5. «Ust .0» - regulyatori yordamida millivolmetr strelkasini nol bilan namunadagi kontaktlarning nosimmetrik joylashini tufayli hosil bo'ladigan boshlang'ich potetsiallar farqini kompensatsiya qilinadi. ( odatdagi tok kontaktlarini namunaning – ekvipotentsial chiziqlariga aniq joylashtirib bo'lmaydi)

Nolga aniq o'rnatish uchun PU pereklyuchatelni «2MV» holatiga o'tkazish mumkin.

6. « $I_{эм}$ » - regulyatori (sozlag'ichi) orqali elektromagnitdan 1 A tok o'tkazing.

7. Bir necha marta (12-14) P2 sozlagichni «-» holatiga o'tkazing va orqali qaytaring.

Bu orqali elektromagnitning cho'lgamlari orqali o'tayotgan tokga mos keluvchi elektromagnitdagi temirning ma'lum magnit holatiga erishiladi.

P2 – pereklyuchatelini «+» holatini keltiring, bu holda ampermetrning ko'rsatishi o'zgarmasligi kerak.

8. P4 pereklyuchateli bilan millivoltmetrning ma'lum o'lchash chegarasini tanlang.  $V_+$  - Xoll potetsiallar farqining miqdoriy jadvalga yozing.

9. P2 – pereklyuchatelni «-» holatiga o'tkazing. Bu holda elektromagnitning tirqishi (zazor) dagi magnit maydonining yo'nalishini teskariga o'zgartiradi. P3 pereklyuchatelni «-» holatiga o'tkazing.

Xoll potetsiallar farqining kattaliga  $V_-$  - ni jadvalga yozing.

10. Xoll potetsiallar millivoltmetrning nolini ayiq o'rnatilmasligi tufayli hosil bo'ladigan hatolik yo'qotiladi.

11. P2 va P3 pereklyuchatellarini «+» holatiga oʻrnatib. 6-9 punktlardagi operatsiyalarni elektromagnit orqali oʻtayotgan tokning 1,5 A va 2A qiymatlari uchun toʻla qaytaring.

12.  $I_{\text{э.м}}$  sozlagich (regulyatorining) soat strelkasiga teskari yoʻnalishida oxirigacha burang ( $I_{\text{э.м}} = 0$ ). 4-10 punktlardagi operatsiyalarni namunadan oʻtuvchi tokning 20 mA va 30 mA qiymatlari uchun qaytaring.

13. Olingan natijalarni jadvalga kiriting.

	$I_{\text{э.м}}$ , A	$I_{\text{о.б.р.}}$ , mA	$H$ , Oe	$V_{+}$ , mB	$V_{-}$ , mB	$V_{\text{yp}}$ , mB	$R$ , $\text{cm}^{-3}$	$n$ , $\text{cm}^{-3}$

Elektromagnit tirgichidagi magnit maydoni kuchlanganligi  $I_{\text{э.м}}$  ning tanlangan qiymatiga mos kattaligini ishga ilova qilingan grafikdan aniqlang.

Xoll doimiysini koʻyidagi formuladan hisoblang:

$$R = \frac{V_{\text{yp}} d}{I_{\text{о.б.р.}} H} \cdot 10^8 \left[ \frac{\text{cm}^3}{\text{a} \cdot \text{cek}} \right]$$

Bu erda  $V_{\text{yp}}$  - voltlar,  $d$  - plastinka qalinligi  $I_{\text{о.б.р.}}$  -Amperlarda, N erstedlarda oʻlchanadi.

Tok tashuvchilar kontsentratsiyasi

$$n = \frac{7,4}{R} 10^{18} [\text{cm}^{-3}]$$

### Adabiyotlar

1. S.G.Kalashnikov. Elektr. Toshkent. 1979 yil. 147 paragraf, 318-322 betlar, 149-150 paragraf, 327-331- betlar, 203 paragraf, 458-462 betlar.
2. S.E.Frish, A.V.Timoreva. «Umumiy fizika kursi», II tom, Toshkent. 1972 yil, 171 paragraf 205-210 betlar, 217 paragraf, 418-421 betlar,
3. I.V. Savelev. «Umumiy fizika kursi», II tom, Toshkent. 1975 yil, 72-73 paragraf, 216- 225 betlar.

## MUNDARIJA

№		
1	Fizikaviy kattaliklarni o'lchash va xatoliklar nazariyasi.....	5
2	Laboratoriya ishlari № 1. Faraday effekti va Verde konstantasini hisoblash.....	7
3	Laboratoriya ishlari № 2 Kotton-Mutton effekti.....	13
4	Laboratoriya ishi № 3. Ferromagnitning magnitlanish egri chizig'ini va gisterzis halqasini o'lchash.....	19
5	Laboratoriya ishi №4. To'g'ri o'tkazgich va aylanma halqaning magnit maydonini o'lchash.....	24
6	Laboratoriya ishi № 5 Taqasimon magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni o'lchash.....	42
7	Laboratoriya ishi № 6 Xoll domiysini va germaniy tok tashuvchilarning konsentratsiyasini o'lchash.....	55

